



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 4 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 8, НОМЕР 4

LOOK TO THE PAST
VOLUME 8, ISSUE 4



ТОШКЕНТ-2025

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлок
хужалигини механизациялаш
муҳандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш давлат университети

Маҳкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафасева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори, профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуридинович
тарих фанлари доктори, профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб


Тўхтабасев Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Boxodirov Ixtiyor TURKISTON HARBIY OKRUGINING ILI O‘LKASIDA ROSSIYA IMPERIYASI HUKMRONLIGINI O‘RNATISHGA QARATILGAN FAOLIYATI.....	5
2. Bo‘tayev Jonibek XX ASR BOSHLARIDA SAMARQAND VILOYATIDA TIBBIY XIZMAT HOLATI.....	10
3. Djumamurotov G‘ulom XVIII ASRNING IKKINCHI YARMI VA XIX ASR BOSHLARIDA QORAQALPOQLARNING OROL BO‘YIGA KO‘CHIB JOYLASHISHI.....	16
4. Ergasheva Xusnida NEFT SANOATINING MODDIY-TEXNIK BAZASI VA INFRASTRUKTURASINI RIVOJLANTIRISH.....	27
5. Кобзева О.П. СКАНДИНАВСКИЕ ИССЛЕДОВАТЕЛИ ШЕЛКОВОГО ПУТИ.....	34
6. Rahmatov Muhridin TATAR ZIYOLILARINING TURKISTON TA‘LIM TIZIMINI YO‘LGA QO‘YILISHIDAGI ISHTIROKI VA UNING NATIJALARI.....	40
7. Ruzikulova Maftunaxon MARKAZIY FARG‘ONA SUV XO‘JALIGINING MOLIYAVIY TA‘MINOTI VA UNDAGI MUAMMOLAR (1950-1991-yillar).....	46
8. Саттаров Акрам XIX АСР ЎРТАЛАРИДА ТУРКИСТОНДАГИ ДЕМОГРАФИК ВАЗИЯТ.....	52
9. Tishabayev Alisher O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MALAKALI SPORTCHI MUTAXASSIS KADRLAR TAYYORLASH TIZIMIDAGI O‘ZGARISHLAR (1991-2019-yillar).....	58
10. Toliboyeva N.O. O‘ZBEKISTONDA MADANIY-MA‘RIFIY SOHANING YUKSALISHI.....	66
11. Хайдаров Муродилла ФРЕДЕРИК СТАРР. МАРКАЗИЙ ОСИЁНИ ҚАЙТА КАШФ ЭТИБ.....	71
12. Baxtiyor Yuldashev, Xusnida Ergasheva SOVET DAVLATI HUKMRONLIGI YILLARIDA O‘LKADA NEFT SANOATINI RIVOJLANTIRISHGA DOIR CHORA-TADBIRLAR.....	81




Toliboyeva N.O.

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
O'zbekiston tarixi kafedrasida dotsenti, PhD

O'ZBEKISTONDA MADANIY-MA'RIFIY SOHANING YUKSALISHI

For citation: Nodira O.Toliboyeva. DEVELOPMENT OF THE CULTURAL AND EDUCATIONAL SPHERE IN UZBEKISTAN. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 4, pp.66-70

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15380676>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekistonda mustaqillik yillarida milliy madaniyatni tiklashga va rivojlantirishga qaratilgan e'tibor natijasida erishilgan yutuqlar, millatlararo totuvlikning madaniy rivojlanishga ta'siri, diniy bag'rikenglik borasidagi amaliy sa'y-harakatlar, vijdon erkinligining ta'minlanganligi kabi tushunchalar tahlil etilgan va amaliy natijalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Milliy madaniyat, vijdon erkinligi, millatlararo totuvlik, milliy qadriyatlarining tiklanishi, diniy bag'rikenglik, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, diniy konfessiyalar, ilmiy-tadqiqot markazlari, AYESKO.

Толібоева Н.О.

Узбекский государственный университет мировых языков
Доцент кафедры истории Узбекистана,
кандидат исторических наук

РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЙ СФЕРЫ В УЗБЕКИСТАНЕ

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются достижения, достигнутые в Узбекистане за годы независимости в результате внимания, уделяемого восстановлению и развитию национальной культуры, влияние межнационального согласия на развитие культуры, практическая работа по обеспечению религиозной толерантности и свободы совести, а также представлены практические результаты.

Ключевые слова: Национальная культура, свобода совести, межнациональное согласие, возрождение национальных ценностей, религиозная толерантность, социально-политическая стабильность, религиозные конфессии, исследовательские центры, AYESKO.

Toliboyeva N.O.

Uzbek State University of World Languages
Associate Professor of the Department of History of Uzbekistan,
Candidate of Historical Sciences

DEVELOPMENT OF THE CULTURAL AND EDUCATIONAL SPHERE IN UZBEKISTAN

ABSTRACT

The article analyzes the achievements made in Uzbekistan during the years of independence as a result of the attention paid to the restoration and development of national culture, the influence of interethnic harmony on the development of culture, practical work to ensure religious tolerance and freedom of conscience, and also presents practical results.

Index Terms: National culture, freedom of conscience, interethnic harmony, revival of national values, religious tolerance, socio-political stability, religious confessions, research centers, AYESKO.

1. Dolzarbligi

Madaniy taraqqiyot inson ma'naviy kamolotining asosiy ko'rsatkichi hisoblanib, mamlakat ravnaqi har bir fuqaroning ongliligi, ularning madaniy-tarixiy boyligini yaratish, saqlash va rivojlantirish jarayonlariga bo'lgan munosabatlariga har tomonlama bog'liqdir. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Har bir suveren davlat o'zining betakror tarixi va madaniyatiga egadir. Bu tarix, bu madaniyatning haqiqiy ijodkori, yaratuvchisi esa xaqli ravishda shu mamlakat xalqi hisoblanadi".

Millatlararo totuvlikni ta'minlovchi huquqiy zaminlar yaratildi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 19-moddasida "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar", deb belgilab qo'yilgan.

2018-yilgi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga muvofiq qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi" ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, mamlakatda xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini yuksaltirish, madaniyat va san'at muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, soha vakillarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirish ishlarini yanada kengaytirish ko'zda tutilgan.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasining 38-maqsadida qayd etilgan "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash" jamiyatda milliy qadriyatlar va ma'naviy merosni asrab-avaylash hamda ilmiy tadqiqotlarda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash, bu sohada ishlarini rivojlantirish bo'yicha yangi yondashuvlarni ishlab chiqish kabi vazifalarning belgilab berilganligi ham mazkur masalaning dolzarb ahamiyatini ko'rsatadi.

Ma'lumki, Markaziy Osiyo mintaqasida yashovchi xalqlarning madaniyati qadim zamonlarda ham G'arb va Sharq mamlakatlari bilan yaqin madaniy aloqalar asosida rivojlangan. Mustaqillik yillarida milliy madaniyatni tiklashga va rivojlantirishga asosiy e'tiborini qaratgan holda O'zbekiston xalqi jahon madaniyati va sivilizatsiyasining zamonaviy yutuqlarini egallashga, ayni paytda jahon madaniyati rivojiga hissa qo'shib kelmoqda. Bu borada olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar xalqimizning milliy o'zlikni anglashiga hamda mamlakatimizda istiqomat qilayotgan turli millatlar o'rtasidagi totuvlikning ta'minlanishiga xizmat qilmoqda.

2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Maqolada umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, qiyosiy mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida O'zbekistonda mustaqillik yillarida madaniy-ma'rifiy sohada amalga oshirib kelingan amaliy ishlar va ularning natijalari yoritilgan.

3. Tadqiqot natijalari:

O'zbekistonda istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari birdek hurmat qilinadi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratildi. Oqilona milliy siyosat tufayli O'zbekistonda yashayotgan barcha millatlarning vakillari orasida etnik-madaniy asoslarda jipslashish jarayoni sodir bo'ldi.

1989-yildayoq O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan millat va elatlarning jamoat tashkilotlari – milliy-madaniy markazlari tuzila boshlangan va shu yili ularning soni 12 taga yetgan edi. 1989-yilda Madaniyat vazirligi qoshida Respublika millatlararo madaniyat markazi tuzildi. Mustaqillik yillarida yaratilgan imkoniyatlar tufayli bu jarayon tez rivoj topdi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirib kelinayotgan siyosatga ko‘ra din davlatdan, siyosatdan ajratilgan, ammo xalqdan ajratilgan emas. 1991-yil davlatning vijdon erkinligi va dinga oid siyosatini belgilab beruvchi “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. Uning qabul qilinishi islom diniga va boshqa dinlarga e‘tiqod qiluvchi fuqarolarning hayotida muhim o‘rin egalladi. 1998-yil O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahriri qabul qilindi. Mazkur qonunda fuqarolarning vijdon va e‘tiqod erkinligi bilan bog‘liq huquq hamda burchlari aniq-ravshan belgilab qo‘yildi. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq, “Davlat diniy konfessiyalar o‘rtasidagi tinchlik va totuvlikni qo‘llab-quvvatlaydi. Bir diniy konfessiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm), shuningdek, boshqa har qanday missionerlik faoliyati man etiladi. Ushbu qoidaning buzilishiga aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka tortiladilar”. O‘zbekiston kabi ko‘p konfessiyali davlatda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va taraqqiyotni ta‘minlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Zero, diniy bag‘rikenglik mamlakatda qurilayotgan demokratik jamiyatning asosiy tamoyillaridan biridir.

Mustaqillik sharofati bilan diniy qadriyatlar, diniy e‘tiqod qayta tiklandi. Ramozon hayiti, Qurbon hayiti qayta tiklandi va bu kunlar dam olish, bayram kuni bo‘lib qoldi. Musulmonlar O‘zbekiston xalqi tarixida birinchi-marta bevosita hukumat homiyligida har yili Haj va Umra amallarini ado etish imkoniyatlariga ega bo‘ldilar. Prezident Farmoni bilan tuzilgan “Ma‘naviyat va ma‘rifat” jamoatchilik markazi, “Oltin meros” xalqaro xayriya jamg‘armasi jamiyatning ma‘naviy-ma‘rifiy ravnaqi yo‘lida xizmat qilmoqda. Islom olami allomalarining diniy qarashlari, ijodiy faoliyatlari o‘rganilib, tavallud topgan kunlari bayram qilindi. Ularga yodgorlik maydonlari yaratilib, haykallar o‘rnatildi.

1990-yil 2-iyun kuni “Musulmonlarning Saudiya Arabistoniga haj qilishi to‘g‘risida”gi farmonini e‘lon qildi. Mamlakatda Islom dini omilidan unumli foydalanish, uning boy ma‘naviy va madaniy qadriyat sifatidagi imkoniyatlarini kengaytirish choralari ko‘rildi. Jumladan, 1992-yilda O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi huzurida din ishlari bo‘yicha qo‘mita tashkil etildi. 1992-yil 27-martda O‘zbekiston Prezidentining “Ro‘za hayitini dam olish kuni, deb e‘lon qilish to‘g‘risida”gi farmoniga ko‘ra, musulmonlar Qurbon va Ramazon hayit kunlarini doimiy ravishda bayram qilish va ularni dam olish kunlari, deb e‘lon qilindi. Mustaqillik sharofati bilan “Islom nuri” haftanomasi, “Hidoyat” jurnali, ko‘plab diniy-axloqiy adabiyotlar chop etila boshlandi. Jumladan, Imom Buxoriyning to‘rt jildidan iborat, Imom Termiziyning bir jildli hadis kitoblari, boshqa allomalarning qator asarlari yuz minglab nusxalarda chop etildi. Qur‘oni Karim sakkiz marta, jami bir million nusxada nashr etildi. Bu muqaddas kitob yurtimizda ilk bor 1992-yil Alouddin Mansur tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilindi va uch marta, jami 300 ming nusxada bosmadan chiqarildi.

Respublikada 17 diniy konfessiya ro‘yxatga olingan va rasman faoliyat ko‘rstamoqda. 170 dan ortiq diniy tashkilotlar ishlab turibdi va ularda O‘zbekistonda yashovchi 130 millat va elat vakillari o‘zlarining diniy ehtiyojlarini qondirmoqdalar. 1,7 mingdan ortiq masjidlar, xristian ibodatxonalari, sinagogalar va boshqa diniy markazlar ta‘mirlandi va yangidan qurildi. 10 ta diniy ta‘lim muassasasi faoliyat ko‘rsatmoqda. Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, O‘zbekistonda xotin-qizlar ta‘lim-tarbiyasiga qaratilayotgan davlat e‘tibori va diniy-ma‘rifiy sohadagi ayol-qizlarning faolligini oshirish maqsadida tashkil etilgan diniy bilim yurtlarining faoliyat olib borilayotganidan darak beradi. Jumladan, Toshkentdagi Xadichai Kubro, Buxorodagi Jo‘ybori shayx bilim yurtlari bugungi kunda ayollarning diniy bilim olishlari, dunyoqarashlarini to‘g‘ri shakllantirishlariga yordam berib kelmoqda.

1999-yilda Toshkentda Islom universiteti ochilishi ham islom ta‘limotining yanada kengroq tadqiq etilishi hamda ilmiy merosini o‘rganilishiga keng yo‘l ochdi. 2004-yili esa Toshkent Islom

universitetida Qur'oni Karimning shayx Abdulaziz Mansur tarjimasida izohli nashri tayyorlandi hamda chop etildi. O'zbekiston hududida xalqning ulug'vor va shonli tarixiga oid 2000 dan ortiq yodgorliklar ta'mirlandi.

Agar sovet davrida mamlakatimiz fuqarolaridan 3-4 kishigina haj safarini ado etgan bo'lsa, 2019-yili 7000 fuqarolarimiz muborak haj safarida bo'lib keldilar.

Tabiiyki, ma'naviy-ruhiy poklanish, qadriyatlarning tiklanishi bir kunda bo'ladigan jarayon emas, balki u bizdan muntazam ravishda izchillik bilan ish olib borishimizni talab etadi. "Imom Abu Mansur al-Moturidiy tavalludining 1130 yilligini nishonlash to'g'risida"gi, "Burhoniddin al-Marg'inoniy tavalludining hijriy sana bo'yicha 910 yilligini nishonlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari buning yaqqol isbotidir. 2003-yili esa naqshbandiya tariqatining asoschisi Abduxoliq G'ijduvoniy tavalludining 900 yilligi keng nishonlandi.

2007-yilda Islom Hamkorligi tashkilotining ta'lim, fan va madaniyat masalalar bo'yicha tuzilmasi – AYESKO tomonidan "Toshkent – Islom madaniyati poytaxti" deb e'lon qilindi. Bu O'zbekiston davlatini dinga bo'lgan munosabatining natijasidir. Shu bilab birga, Vazirlar Mahkamasi huzurida ham "Din ishlari bo'yicha qo'mita" tashkil etilgan bo'lib, bu boradagi ishlarni amalga oshirishga ko'maklashib kelmoqda.

Xususan, O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidagi tarixiy nutqida diniy bag'rikenglikni mustahkamlashga doir "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish tashabbusini ilgari surganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tashabbus BMTga a'zo 193 ta mamlakat tomonidan qo'llab-quvvatlanib, BMTning 73-sessiyasida ushbu rezolyutsiya qabul qilindi.

Prezidentning 2017-yil 27-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq Samarqandda ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi. Uning tarkibida hadisshunoslik oliy maktabi, hadis, kalom va qiroat ilmini o'rganishga mo'ljallangan xonalar, qo'lyozmalar kutubxonasi, muzey tashkil etildi. 23-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida Toshkentda Islom madaniyati markazi hamda 15-dekabrda farmon asosida esa O'zbekiston Islom akademiyasi tashkil etildi.

O'zbekiston musulmonlari erkinlik va imkoniyatlarga ega bo'ldilar. Ular bevosita hukumat yordamida har yili muqaddas haj va umra amallarini ado etish imkoniyatiga erishdilar. Agar sovet davrida mamlakatimiz fuqarolaridan 3-4 kishigina haj safarini ado etgan bo'lsa, 2016-yilga qadar har yili 5000 dan ortiq fuqarolarimiz hoji bo'lib qaytishdi. Tabiiyki, ma'naviy-ruhiy poklanish, qadriyatlarning tiklanishi bir kunda bo'ladigan jarayon emas, balki u bizdan muntazam ravishda izchillik bilan ish olib borishimizni talab etadi. "Imom Abu Mansur al-Moturidiy tavalludining 1130 yilligini nishonlash to'g'risida"gi, "Burhoniddin al-Marg'inoniy tavalludining hijriy sana bo'yicha 910 yilligini nishonlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bunga misol bo'la oladi. 2003-yili esa naqshbandiya tariqatining asoschisi Abduxoliq G'ijduvoniy tavalludining 900 yilligi keng nishonlandi.

"Movarounnahr" diniy boshqarmasi faoliyati respublikamiz hayotida o'z o'rnini egalladi. Diniy boshqarma qoshida Islom Universiteti va viloyatlarda madrasalar tashkil etildi. "Islom nuri" gazetasi chop etilmoqda. Mustaqillik arafasida O'zbekiston bo'yicha 87 masjid bo'lsa, 1998-yilda ularning soni 3000ga hozir esa 5000 ga yetdi. Din inson ruhini poklashi, odamlar o'rtasida mehr-oqibat tuyg'ularini mustahkamlashi, milliy qadriyat va an'analarni asrashga xizmat qilishi bilan jamiyat hayotida muhim o'rin tutib kelgan. O'zbek yurti azaldan qadimiy dinlar rivoj topgan makondir.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida milliy qadriyatlar, milliy urf-odatlar va an'alarimiz qayta tiklandi, ulug' bobokalonlarimizning nomlari va ilmiy merosi o'rganila boshlandi, din, eng avvalo, islom dinining ham milliy, ham umuminsoniy qadriyat sifatidagi mavqeyi tiklandi, diniy ulamolarning qadr-qimmatini o'z joyiga qo'yildi, o'zbek milliy san'ati, madaniyati rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratildi.

Iqtiboslar/ Сноски/ References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023. <https://lex.uz/docs/-6445145>.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni. 2018. <https://lex.uz/acts/-4084926>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston - 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli farmoni. 2023.// <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda quramiz. – Toshkent, 2017. - 32 b.
5. Toliboyeva N.O. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2024. - 215 b.
6. Babadjanova N.A. Mamlakat taraqqiyotini ta'minlashda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik - muhim omil. “Bag‘rikenglik – tinchlik, fuqarolararo hamjihatlik, millatlararo va dinlararo totuvlik garovi” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Toshkent-2025. 18-19-mart.

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 4 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 4

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 4

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000